

GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHDA ZAMONAVIY VALEOLOGIK YONDASHUVLAR VA ICHKILIKBOZLIKNING OQIBATLARI HAMDA UNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Nomozova Gulasal Mamadjonovna

*Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat Salomatligi texnikumi “Yuqumli kasalliklarda
hamshiralik ishi “ muduli o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada giyohvandlik va ichkilikbozlikning inson salomatligi, ruhiy holati hamda jamiyat taraqqiyotiga ko’rsatadigan salbiy ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, giyohvandlikni oldini olishda zamonaviy valeologik yondashuvlarning ahamiyati, sog’lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik ta’lim, psixologik qo’llab-quvvatlash va jamoatchilik ishtirokining o’rni yoritilgan. Maqolada ichkilikbozlikning tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari hamda ularni kamaytirish bo’yicha samarali profilaktik chora-tadbirlar ilmiy manbalar asosida bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *giyohvandlik, ichkilikbozlik, valeologiya, profilaktika, sog’lom turmush tarzi, salomatlik, zararli odatlar, psixologik salomatlik.*

KIRISH

Bugungi kunda giyohvandlik va ichkilikbozlik dunyo miqyosida eng dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illatlar nafaqat insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga, balki oilaviy munosabatlar, mehnat unumdorligi, iqtisodiyot va jamiyat xavfsizligiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatadi. Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, spirtli ichimliklarni me’yoridan ortiq iste’mol qilish va giyohvand moddalarni qo’llash har yili millionlab insonlarning bevaqt vafot etishiga sabab bo’lmoqda. So’nggi yillarda sog’lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan valeologik yondashuvlar giyohvandlik va ichkilikbozlik profilaktikasida muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Valeologiya inson salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va sog’lom hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan fan sifatida profilaktik tibbiyotning muhim yo’nalishlaridan biridir.

Asosiy qism

Giyohvandlik – narkotik yoki psixofaol moddalarni muntazam iste’mol qilish natijasida yuzaga keladigan jismoniy va ruhiy qaramlik holatidir. Ushbu kasallik asta-sekin rivojlanib, insonning markaziy asab tizimi faoliyatini izdan chiqaradi. Giyohvandlikka duchor bo’lgan shaxs moddani qabul qilmasdan yashay olmaydigan darajaga yetadi.

Milliy strategiya doirasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o’quvchi va talabalar orasida kuchli ta’sir qiluvchi dorilarni iste’mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta’sirchan targ’ibot-tashviqot va tarbiyaviy-

profilaktik mexanizmlarni joriy etish maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi.

Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi subyektlar mas'uliyatini oshirishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish ham ularning ustuvor vazifalariga kiradi.

Ma'lumki, bugungi kunda voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda hamda telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish orqali giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi ortib borayotganligi munosabati bilan ushbu huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari qayta ko'rib chiqish talab etilayotgan edi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan yaqinda qabul qilingan va kuni kecha Senatda ma'qullangan tegishli qonun bilan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilandi.

Shubhasiz, ushbu qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni targ'ib yoki reklama qilinishi yoxud noqonuniy muomalasining barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Albatta, yurtimizda ushbu masalaga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki giyohvandlik nafaqat bu illat bilan shug'ullanuvchilarga, balki butun jamiyatga tahdid soladi. Shuning uchun ham har yili 26-iyun — Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurashish kuni, deb e'lon qilingan.

Ushbu sana munosabati bilan respublikamizda doimiy ravishda turli tadbirlar o'tkazilib borilmoqda. Jumladan, oliy o'quv yurtlarida, litsey va kollej, maktab va boshqa o'quv muassasalarida barcha soha vakillari hamkorligida tadbirlar o'tkazilib, yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda.

Shuningdek, mahallalarda, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida, barcha mehnat jamoalarida giyohvandlikning inson sog'lig'iga zarari va uning ayanchli oqibatlari haqida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan.

BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 27 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumayotgani taassuflidir.

Keyingi paytlarda giyohvand va psixotrop moddalarning inson salomatligiga ziyoni haqida ko'p gapirilayotganiga qaramay, afsuski, yoshlar orasida bu zararli moddalarga qiziqish saqlanib, ertamiz egalarining bu illat domiga bilib-bilmay tushib qolayotgani achinarli holdir.

Sirasini aytganda, giyohvandlikka qaramlik aholining mehnatga qobiliyatli qismini zararlashi, ularning ijtimoiy himoyaga muhtojligi va unga ketadigan sarf-xarajatlarning kattaligi, mamlakatning demografik holatiga ta'sir qilishi orqali, birinchidan, iqtisodiy taraqqiyotga, ikkinchidan, aholining sog'lom, bexavotir turmush kechirishiga xavf tug'dirishi orqali milliy taraqqiyot va barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu illatga qarshi kurashish nafaqat ota-ona yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki shu yurtida yashovchi har bir fuqaroning burchiga aylanmog'i kerak. Zotan, yoshlarimiz yurtimiz taraqqiyotining tayanchi va suyanchidir.

XULOSA

Giyohvandlik va ichkilikbozlikni kamaytirish uchun tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni birgalikda qo'llash zarur. Valeologik yondashuvlar aholining sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va zararli odatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WHO. Global Status Report on Alcohol and Health.
2. UNODC. World Drug Report.
3. Valeologiya asoslari. Toshkent.
4. Profilaktik tibbiyot asoslari. Toshkent.